

XI. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI

2021 yilning 1 oktabr holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni 48 018 taga yetdi, shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 32 812 tani yoki jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 68,3 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 57,3 %), savdo (12,8 %), sanoat (8,6 %) va qurilish (4,2 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

Jizzax viloyatidagi korxonalar va tashkilotlar sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi (2021 yil 1 oktabr holatiga)

	Ro‘yxatga olangan		Faoliyat ko‘rsatayotgan	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
Jami	48 018	100,0	32 812	100,0
<i>shu jumladan:</i>				
qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	27 496	57,3	13 198	40,2
sanoat	4 112	8,6	3 876	11,8
qurilish	2 237	4,7	2 168	6,6
savdo	6 156	12,8	5 856	17,8
tashish va saqlash	683	1,4	647	2,0
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 547	3,2	1 467	4,5
axborot va aloqa	305	0,6	282	0,9
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	326	0,7	322	1,0
boshqa faoliyat turlari	5 156	10,7	4 996	15,2

Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma’lumotlariga ko‘ra, 2021 yilning 1 oktabr holatiga ro‘yxatga olingan yuridik shaxslar soni (fermer va dehqon

xo‘jaliklarisiz) 24 740 taga yetdi, shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari soni 23 600 tani yoki jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning 95,4 foizini tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi, savdo (jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning (24,9 %), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (17,0 %), sanoat (16,6 %) va qurilish (9,0 %) sohalariga to‘g‘ri keladi.

Jizzax viloyatidagi korxona va tashkilotlarning iqtisodiy

faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

(2021 yil 1 oktabr holatiga fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz)

	<i>Ro‘yxatga olanganlar</i>		<i>Faoliyat ko‘rsatayotganlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
Jami	24 740	100,0	23 600	100,0

shu jumladan:

qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	4 218	17,0	3 986	16,9
sanoat	4 112	16,6	3 876	16,4
qurilish	2 237	9,0	2 168	9,2
savdo	6 156	24,9	5 856	24,8
tashish va saqlash	683	2,8	647	2,7
yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	1 547	6,3	1 467	6,2
axborot va aloqa	305	1,2	282	1,2
sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	326	1,3	322	1,4
boshqa faoliyat turlari	5 156	20,8	4 996	21,2

**Jami ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarning
hududlar bo‘yicha taqsimlanishi
(2021 yil 1 oktabr holatiga, birlik)**

	<i>2021 yil 1 oktabr holatiga ro‘yxatga oltinganlar soni</i>	<i>shuningdek, 2021 yil yanvar-sentabr oylari davomida:</i>	
		<i>yangi tashkil etilganlar</i>	<i>tugatilganlar</i>

Jizzax viloyati	48 018	4 212	1 048
------------------------	---------------	--------------	--------------

shahar:

Jizzax	7 242	910	168
---------------	--------------	------------	------------

tumanlar:

Arnasoy	3 278	203	34
Baxmal	3 980	334	89
G‘allaorol	5 716	404	63
Sharof Rashidov	6 821	603	114
Do‘stlik	2 067	193	106
Zomin	4 599	399	50
Zarbdor	3 664	330	70
Zafarobod	2 290	128	47
Mirzacho‘l	2 280	162	68
Paxtakor	2 207	186	52
Forish	2 874	265	87
Yangiobod	1 000	95	100

2021 yil yanvar-sentabr oylarida jami 4 212 ta yangi korxonalar va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes subyektlari – 4 108 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 878 tasi, yoki 21,4 %) hamda Sharof Rashidov (595 tasi, yoki 14,5 %) va G‘allaorol (397 tasi, yoki 9,7 %) tumanlariga to‘g‘ri keladi.

Ro‘yxatga olingan yuridik shaxslarni hududlar

bo‘yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlik)

	<i>2021 yil 1 oktabr holatiga ro‘yxatga olanganlar</i>	<i>shuningdek, 2021 yil yanvar-sentabr oylari davomida:</i>	
		<i>yangi tashkil topganlar</i>	<i>tugatilgan</i>

Jizzax viloyati	24 740	3 526	812
------------------------	---------------	--------------	------------

shahar:

Jizzax	7 142	909	168
--------	-------	-----	-----


tumanlar:

Arnasoy	823	108	31
Baxmal	1 528	276	77
G‘allaorol	2 111	360	63
Sharof Rashidov	3 812	503	87
Do‘slik	1 061	174	64
Zomin	1 972	291	49
Zarbdor	1 189	178	65
Zafarobod	744	85	43
Mirzacho‘l	935	128	33
Paxtakor	1 102	170	26
Forish	1 757	263	75
Yangiobod	564	81	31

2021 yil yanvar-sentabr oylarida (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) jami – 3 526 ta yangi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan (shundan kichik biznes subyektlari – 768 ta). Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi Jizzax shahri (viloyat bo‘yicha ro‘yxatga olingan jami korxona va tashkilotlarning 168 tasi, yoki 20,7 %), Sharof Rashidov (87 tasi, yoki 10,7 %) va G‘allaorol (77 tasi, yoki 9,5 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

2021 yil 1 oktabr holatiga – 21 396 ta tijorat shaklidagi korxona va tashkilotlar ro‘yxatga olingan bo‘lib, shundan xususiy korxonalar – 5 097 ta, oilaviy korxonalar – 1 811 ta, mas’uliyati cheklangan jamiyatlar – 14 001 ta, aksionerlik jamiyatlari – 20 tani tashkil etadi.

**Ro‘yxatga olingan tijorat korxonalarining
tashkiliy-huquqiy shakllari bo‘yicha soni
(fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz, birlikda)**




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yangi ro‘yxatga olingan korxona va tashkilotlarning 31,2 foizi savdo, 20,7 foizi qishloq va o‘rmon xo‘jaligi va 20,3 foizi sanoat sohalariga to‘g‘ri keladi.

Hisobot davrida 812 ta korxona va tashkilotlar faoliyati tugatilgan.

Xorijiy kapitali ishtirokidagi korxonalar. 2021 yil 1 oktabr holatiga faoliyat ko‘rsatayotgan xorij kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 224 tani tashkil etdi.

2021 yilning 1 oktabr holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar soni 224 tani tashkil etdi. Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida 68 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 59 ta, Rossiya Federatsiyasi 55 ta, Amerika qo‘shma shtatlari 7 ta, Koreya Respublikasi 6 ta va boshqa davlatlar kapitali ishtirokida 29 ta korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan.

Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hamkor davlatlar kesimidagi soni, birlikda



Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalardan 145 tasi qo‘shma korxonalar, 79 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to‘g‘ri keladi.

2021 yil yanvar – sentabr oylari holatiga xorij mamlakatlar rezidentlari kapitali ishtirokida ro‘yxatdan o‘tgan yangi korxonalar soni – 21 tani tashkil etdi. Bunda, Turkiya Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 8 ta, Xitoy Xalq Respublikasi – 4 ta, Rossiya Federatsiyasi – 4 ta va boshqa davlatlarning rezidentlari kapitali ishtirokida 5 ta yangi korxonalar ro‘yxatdan o‘tgan.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar
(2021 yil 1 oktabr holatiga, birlikda)

	<i>2021 yil 1 oktabr holatiga faoliyat ko'rsatayotganlar soni</i>	<i>shundan</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>

Jizzax viloyati	224	145	79
------------------------	------------	------------	-----------

shahar:

Jizzax	71	48	23
--------	----	----	----

tumanlar:

Arnasoy	8	5	3
Baxmal	10	7	3
G'allaorol	22	15	7
Sharof Rashidov	19	12	7
Do'stlik	7	4	3
Zomin	16	8	8
Zarbdor	4	3	1
Zafarobod	10	3	7
Mirzacho'l	5	2	3
Paxtakor	8	7	1
Forish	31	24	7
Yangiobod	13	7	6

**Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining
iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanishi**
(2021 yil 1 oktabr holatiga)


	<i>Korxonalar soni, birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan, % da</i>
Jami	224	100,0
<i>shu jumladan:</i>		
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi	39	17,4
Sanoat	123	54,9
Qurilish	11	4,9
Savdo	28	12,5
Tashish va saqlash	6	2,7
Yashash va ovqatlanish	3	1,3
Axborot va aloqa	3	1,3
Sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish	2	0,9
Boshqa faoliyat turlari	9	4,0

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida xorij kapitali ishtirokida faoliyat ko‘rsatayotgan 224 ta korxonaning 123 tasi (54,9 %) sanoat, 39 tasi (17,4 %) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 28 tasi (12,5 %) savdo, 11 tasi (4,9 %) qurilish, 6 tasi (2,7 %) tashish va saqlash, 3 tasi (1,3 %) yashash va ovqatlanish, 3 tasi (1,3 %) axborot va aloqa, 2 tasi (0,9 %) sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish hamda 9 tasi (4,0 %) boshqa sohasiga to‘g‘ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar


2021 yil 1 oktabr holatiga Jizzax viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 20 270 tani tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich 2020 yil 1 oktabr holatiga nisbatan 119,6 foizga oshgan. Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi, ya’ni 6 019 tasi (29,7 %) Jizzax shahriga, 3 332 tasi (16,7 %) Sharof Rashidov, 1 734 tasi (8,6 %) G‘allaorol va 1 594 tasi (7,9 %) Zomin tumanlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

**Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning
hududlar kesimidagi taqsimoti, birlikda**



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko‘rsatayotgan jami 20 270 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 5 846 tasi (28,8 %) savdo, 3 938 tasi (19,4 foiz) qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi, 3 842 tasi (19,0 %) sanoat, 2 163 tasi (10,7 %) qurilishda, 1 463 tasi (7,2 %) yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar sohasi, 642 tasi (3,2 %) tashish va saqlash, 265 tasi (1,3 %) axborot va aloqa sohasi, 237 tasi (1,2 %) sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, shuningdek 1 874 tasi (9,2 %) boshqa faoliyat turlari hissalariga to‘g‘ri keladi. Shundan ko‘rinib turibdiki, faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi tarmoqlariga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa, axborot va aloqa hamda sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohalariga to‘g‘ri keladi.

Faoliyat ko‘rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalar sonining iqtisodiy faoliyati turlari bo‘yicha taqsimoti, % da



2021 yilning yanvar–sentabr oylarida 3 422 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2020 yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 103,4 foizni tashkil qildi. Eng ko‘p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Jizzax shahrida (877 ta), Sharof Rashidov (495 ta), G‘allaorol (353 ta) va Baxmal (264 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Yangiobod (79 ta), Zafarobod (81 ta), Arnasoy (105 ta) hamda Mirzacho‘l (126 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni taqqoslanganida eng ko‘pi savdo (1 101 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (721 ta), sanoat (714 ta), qurilish (208 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (198 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa, sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish (40 ta), tashish va saqlash (44 ta) hamda axborot va aloqa (83 ta) sohalari hissasiga to‘g‘ri kelgan.

Yuridik shaxs sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tgan oilaviy korxonalar soni 2021 yilning 1 oktabr holatiga 1 811 tasi tashkil etdi, ulardan 1 668 tasi yoki 108,6 foizi faoliyat yuritmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda, faoliyat ko‘rsatayotgan oilaviy korxonalarining 708 tasi yoki 42,4 foizi sanoat, 323 tasi yoki 19,4 foizi savdo, 263 tasi yoki 15,8 foizi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 258 tasi yoki 15,5 foizi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 8 tasi yoki 0,5 foizi axborot va aloqa, 8 tasi yoki 0,5 foizi qurilish, 6 tasi yoki 0,4 foizi sog‘lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish, 1 tasi yoki 0,1 foizi

tashish va saqlash hamda 93 tasi yoki 5,6 foizi boshqa faoliyat turlari hissasiga to‘g‘ri keladi.

Xususiy korxonalar soni (2021 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)



Tashkiliy-huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan xususiy korxonalar soni **2021 yil 1 oktyabr** holatiga ko‘ra 5 097 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 192 taga yoki 103,9 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

Faoliyat ko‘rsatayotgan xususiy korxonalar soni 4 754 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 214 taga yoki 104,7 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2021 yil yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni 336 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 150 taga yoki 30,9 % ga kamayganligini ko‘rish mumkin.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni (1 oktabr holatiga ko‘ra, birlikda)

Tashkiliy - huquqiy shakli bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2021 yil 1 oktabr holatiga ko‘ra 14 001 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 777 taga yoki 124,7 % ga oshganligini ko‘rsatmoqda.

Faoliyat ko‘rsatayotgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 13 475 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 2 658 taga yoki 124,6 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

2021 yilning yanvar-sentabr oylarida yangi tashkil etilgan mas’uliyati cheklangan jamiyatlar soni 2 589 tani tashkil etib, bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan olganda 403 taga yoki 118,4 % ga oshganligini ko‘rish mumkin.

